

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

**O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH VA PSIXOLOGIK-
PEDAGOGIK RESPUBLIKA TASHXIS MARKAZI**



Ko‘rishida muammosi bo‘lgan bolalarning ijtimoiy hayotga moslashishida oilaning roli

Nomli inklyuziv ta’lim orqali ko‘rishida muammosi bo‘lgan bolalarning ota-onalari va keng jamoatchilik orasida sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirish uchun metodik qo‘llanma



Toshkent 2022-yil

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Ilmiy metodik Kengashining **2022-yil 28-iyundagi 2-sonli** yig‘ilish qarori bilan ma’qullangan.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi direktori **L.R.Gaynutdinov**ning umumiy tahriri ostida tayyorlandi.

Tuzuvchi:

S. Mo‘minov

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Inklyuziv ta’lim laboratoriyasi bo‘limi metodisti

Sh.Ibadullayeva

CHDPU Pedagogika fakulteti “Maxsus pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

F.Qodirova p.f.d. professor

CHDPU Pedagogika fakulteti “Maxsus pedagogika” kafedrasi mudiri.

A. Kadirova

Toshkent shahar Yashnaobod tumani 77-sonli ko‘zi ojiz bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internati o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari.

S. Baturova

Samarqand viloyati Samarqand shahar 60-sonli zaif ko‘ruvchi bolalar maktab-internati o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari.

Dizayner va rassom: G.Imamaliyeva- -Toshkent shahar Uchtepa tumani 109-sonli umumta’lim maktabi direktori.

Ko‘rishida muammosi bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlaydigan pedagog xodimlar va ularning ota-onalariga metodik tavsiyalar

Kirish

Farzandlarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o‘rin egallashini ta‘minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarishni davrning o‘zi taqozo etmoqda. Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat‘iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etishimiz lozim.

Barkamol inson, uning mehnati va turmushi, ma‘naviy taraqqiyoti haqida g‘amxo‘rlik davlatimizning ustuvor masalalaridan biridir. Ayniqsa, yordamga muhtoj, ruhan va jismonan zaif bo‘lgan shaxslarning turmush tarzi, ularga maxsus ta‘lim-tarbiya berish, kasbga yo‘naltirish va ish bilan ta‘minlash masalalariga hukumatimiz tomonidan katta e‘tibor qaratib kelinmoqda. Jamiyatimizda ta‘lim sohasida tenglik, tolerantlik va insonlararo yuksak madaniyat muhitini shakllantirishda inklyuziv ta‘lim kirib kelmoqda.

Barcha bolalarning ehtiyojlarini har qanday ehtiyojlarini hisobga oladigan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan, ijtimoiy adolat hamda tenglikka erishishni maqsad qilib olgan ta‘lim tizimi **inklyuziv ta‘lim** deyiladi.

Undan tashqari inklyuziv ta‘lim — alohida ta‘lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta‘lim oluvchilar uchun ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta‘minlagan holda beriladigan ta‘limdir.

Inklyuziv ta‘lim tizimini rivojlantirish: Ta‘lim olish uchun keng imkoniyatlarni ta‘minlash hamda barcha bolalarning individual xususiyatlaridan, oldingi yutuqlaridan, tili, madaniyati, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat‘iy nazar ta‘limda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir.

Inklyuziv ta‘lim:

- alohida ta‘limga ehtiyojli har bir bolaga o‘z imkoniyatini o‘zi uchun kashf etish imkonini beradi;

- alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta‘lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta‘lim-tarbiya metod va vositalarini qo‘llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash;

- mustaqil harakatlanish, birgalikda, hamkorlikda ishlash, o‘qish uchun keng sharoit yaratadi;

- dunyoqarashi kengayadi, hayotiy ko‘nikmalari shakllanadi;

- o‘qishga undovchi kuch paydo bo‘ladi va qiziqishlari ortadi;

- jamoada o‘zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi;

- yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo‘qoladi.

inklyuziv ta'lim sinfi — maktabdagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning boshqa (sog'lom) bolalar bilan teng huquqli va birgalikdagi ta'lim olishlari shaklida tashkil etilgan sinf;

boshlang'ich tayanch korreksion sinfi — maktabda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun alohida tashkil etiladigan boshlang'ich sinf;

Inklyuziv ta'limning maqsadi — alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o'rta ta'lim berishni ta'minlashdan iborat.

Inklyuziv ta'limning vazifalari quyidagilardan iborat:

- rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;

- jamoatchilik hamda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar muammolariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish;

- ta'lim jarayonida sog'lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;

- barcha o'quvchilar uchun davlat ta'lim standartlariga muvofiq umumiy o'rta ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;

- o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko'nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta'lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya metod va vositalarini qo'llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli qarorlariga muvofiq birinchi marta 2021-2022-o'quv yilidan boshlab zamonaviy alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun qulay umumta'lim maktablariga qabul qilish boshlandi. Shu o'rinda barchamizda savol tug'ulishi mumkin, qanday bolalar inklyuziv ta'limda o'qiydi:

- eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar (eshitish qobiliyatining yo'qotilishi 60 Db gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar);

- ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar (ko'rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar);

- somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar);

- nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizatriya, psixik-nutqiy rivojida sustlik, duduqlanish);

- tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar (bolalar serebral falaji, skolioz, poliomyelit, miopatiya, osteomyelit, amputatsiya, bo'y o'sishining yetishmovchiligi — pakanalik);

- aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-xarakat tizimidagi buzilishi bo'lgan bolalar;

- aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar (o'zi harakat qila oladigan yoki qo'shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan bolalar serebral falaji);

- intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar;

- hulq-atvor va ruhiyatning qo'pol buzilishlarisiz autistik spektri buzilgan bolalar;

- intellektual rivojlanishi saqlanib qolingan, tutqanoq holatida bo'lgan bolalar (agar bola antikonvulsant dorisini qabul qilganda, tutqanoq 1 oyda 1-martadan oshmagan paytda) qabul qilinadi.

Ushbu alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar orasida ko'rishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limi juda ham qiziqarli hisoblanadi.

Ko'rishida muammosi bo'lgan bolalar **ko'ruv o'tkirligiga ko'ra 2** turga bo'linadi:

1. **Total ko'rlar** - ko'rish o'tkirligi 0 bo'lgan bolalar Brayl tizimidagi yozuv asosida o'qiydi va yozadilar.

2. **Qisman ko'rlar**, ko'rish o'tkirligi 0,05 gacha bo'lgan bolalar saqlangan ko'rish imkoniyatidan foydalanib oddiy yozuvda o'qish va yozishi mumkin.

Zaif ko'ruvchilar ko'rish o'tkirligiga ko'ra quyidagicha turga bo'linadi:

1. Ko'ruv o'tkirligi **0, 05 dan 0, 1 gacha**;

2. Ko'ruv o'tkirligi **0, 1 dan 0, 2 gacha**;

3. Ko'ruv o'tkirligi **0, 2 dan yuqori 0, 4 gacha**.

Ko'zi ojiz bolalar darsda o'quv materialni asosan taktil sezish va eshitish idroki asosida o'zlashtiradilar.

Ko'zoynak taqib yurishi kerak bo'lgan bolalarga tegishli sanitariya-gigiena sharoitlari yaratilishi zarur. Bolaning ish o'rni to'g'ri va yetarli darajada yoritilgan bo'lishi lozim. Bola doska, jadval, kartada chizilgan tasvirlar va boshqa o'quv materiallarini qanchalik aniq ko'rayotganiga e'tibor beriladi. Alohida yordamga muhtoj refraksiyali bolalarning ko'zi tez charchab qolishini hisobga olib, dars vaqtida ularga ish turlarini mumkin qadar o'zgartirib turish, ko'z qadash bilan bog'liq bo'lgan ishlar, topshiriqlar hajmini g'oyat jiddiy nazorat qilib borish talab qilinadi.

Bolalarni ijtimoiy hayotdagi jarayonlarni o'rganishga va so'z boyligini rivojlantirish uchun birinchi navbatda turli xil rag'batlantirish ishlarini tashkil qilish zarurdir. Uy sharoitida mavjud bo'lgan barcha predmetlarni ko'rinishlari, tovushlari, hidlarini tushuntirish, hamda har holatda bolaga dalda bo'lish kerak. Shuningdek, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarga kundalik turmush ko'nikmalarini

qanday ovqatlanish, kiyinish, yuvish va h.k.larni muntazam ravishda o'rgatib borish kerak.

Ko'rishda muammosi bo'lgan bolalar uchun tayanch korreksion sinfda ta'limning mazmuni va amalga oshirilishi

Ko'zlangan asosiy vazifa-ko'rish qobiliyati past bo'lgan bolalarning ko'p qirrali rivojlanishi uchun sharoit yaratish va ikkilamchi (ya'ni, asosiy zaiflik tufayli) rivojlanish nuqsonlarini yengib o'tishi uchun ko'maklashishdir.

Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga ko'rishda muammosi bo'lgan (ko'rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo'lgan, rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan) bolalar qabul qilinadi.

Total ko'rlar - ko'rish o'tkirligi 0 bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limga qabul qilinmaydi. Brayl tizimidagi yozuv asosida o'qiydi va yozadilar.

O'quvchi erishgan har bir yutug'ini yuqori baholash, qaysi analizatorida muammosi bo'lsa boshqa analizatorining faoliyatini rivojlantirish, bolaning hayotga muhabbatini oshirish, tasodifiy sovg'alar bilan taqdirlash, tengdoshlari orasida bolani ruhan ko'tarish va boshqalarga alohida e'tibor berish lozim.

- Yorqin rangdagi, fondan yuqori darajada farq qiladigan va osonlik bilan talqin qilinadigan oddiy konturlarni taqdim etadigan materiallardan foydalaning.

- Vizual ma'lumotni boshqa sezgir belgilar bilan, xususan eshitish signallari bilan bog'lash.

- O'quvchining ko'rinishini talab qiladigan imkoniyatlarni yaratish, masalan stakanni stol ustiga turli xil holatlarda joylashtirish, shunda o'quvchi uni ko'z bilan izlash holati kuzatiladi.

- Haddan tashqari tartibsizliklarni keltirib, o'quvchini ortiqcha rag'batlantirishdan saqlanang.

- O'quvchilar so'z boyligi, haqiqiy narsalar, tana harakatlari va mavhum g'oyalar o'rtasidagi aloqani o'rnatishda har doim yordamga muhtoj bo'ladi.

O'quvchiga turli xil sharoitlarda va turli xil odamlar bilan munosabatga kirishish jarayonida zamonaviy va inovatsion aloqa tizimini ishlab chiqish kerak bo'ladi. O'quvchilarni eng mos aloqa tizimi sifatida nutq, imo-ishora tili, syujetli rasmlar, axborot texnologiyalari, texnika hamda texnologiyalardan foydalanish samarali natija beradi. O'quvchilar ushbu aloqa vositalaridan qulayini tanlab olishi kerak bo'ladi. Zaif ko'ruvchi o'quvchilar uchun:

- ko'rish qobiliyati past o'quvchilar uchun fotokopiya yoki kompyuterdagi bosma va grafik materiallarni kattalashtiring.

- shaffof rasmlar, bo'sh joylari va chekkalari yetarlicha joy bo'lgan materiallarni tanlang.

- o'quvchi uchun barcha sinflardagi materiallar katta bosma nashrni talab qilmaydi. Masalan, o'quvchiga faqat matematik kitoblar, lug'atlar va katta bosma xaritalarda kerak bo'lishi mumkin.

- ko'zi ojiz o'quvchining charchagan ma'lum vaqtlarida katta bosma nashrga ehtiyoj tug'dirishi mumkin.

- zaif ko'ruvchi o'quvchilar boshlang'ich sinflarda boshqa o'quvchilar bilan bir xil nashrdan foydalanishlari mumkin.

- 4-sinfga kelib, o'qish materialining miqdori o'quvchiga katta bosma nashrlardan foydalanishni boshlashi kerak bo'lishi mumkin.

- o'quvchi faqat bo'sh vaqtini o'qish uchun katta bosma kitoblardan foydalanishni yoki uyda katta hajmdagi bosma nusxasini olishni xohlashi mumkin.

Inklyuziv ta'lim jarayonida o'qituvchi, o'qituvchi-defektolog va oilaning roli nihoyatda katta bo'ladi. **Boshlang'ich sinf o'qituvchisi:**

- Butun dunyo hamjamiyati tomonidan qabul qilingan bola huquqlariga doir xalqaro va O'zbekistonda qabul qilingan qonunlar, qarorlarni bilishi va ularga amalga oshirishi zarur.

- Ta'lim-tarbiya jarayonini davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv reja va dastur asosida maxsus korreksion tuzatish usullaridan foydalanilgan holda olib boradi;

- Alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlarini bilishi va ta'lim jarayonini shunga mos ravishda olib bora olishi.

- Alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarning imkoniyatiga mos ravishda individual yondoshuvni amalga oshirish (dars davomida va darsdan tashqari);

- Ta'lim jarayonida hamkorlikda faoliyat olib borishning samaradorlikka erishish va unda ota-onaning o'rnini ko'rsatib berish;

- Ta'limda zamonaviy, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish (kompyuter, monitor, tarqatma materiallar va hokazo);

- Inklyuziv ta'lim bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasini doimiy ravishda o'rganib borish, va ularning ish faoliyatida qo'llash;

- Innovatsion bilim, malaka hamda ko'nikmalar bilan qurollanib yurishi (har qanday vaziyatda ham qiziquvchilarning savollariga javob beraoladigan bo'lishi);

- Alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarni sinf, maktab jamoasiga moslashishi uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni amalga oshirib borishi;

- Sinf jamoasi orasida do'stona munosabat muhitini o'rnatish va nazorat qilib birish.

- Doimiy ravishda o'z ustida ishlash va tajriba almashib borish;

- O'quvchilarning yutuqlarini baholash va yetkazish strategiyasini ishlab chiqishi lozim.

Inklyuziv boshlang'ich sinf o'qituvchisi har doim alohida ta'lim ehtiyojli o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan muloqotda bo'lishadi. Ushbu muloqot uchun ba'zi tavsiyalar:

- ota-onalar bilan muloqot o'rnatish jarayonida sof adabiy tilda (samimiy) ochiq va muntazam ravishda muloqot qilish;

- ota-onalarni ta'lim jarayonida qanday qilib ishtirok etishlari mumkinligini tushuntirish ya'ni maktabga har qanday vaqti kelib ta'lim jarayoni kuzatib borishi, farzandini dars jarayonidagi ishtirokini kuzatishi mumkin;

- ota-onalarga bolaning milliy ta'lim dasturida qanday va qay darajada ishtirok etishini o'rgatish (asosan yakka mashg'ulotlarda);

- ota-onalarga tarbiya dasturlari va qo'llab-quvvatlash guruhlariga kirish huquqini berish (sinf va maktab yig'ilishida qatnashishini ta'minlash va ularni jalb qilish);

- ota-onalar bilan aloqa bog'lash ya'ni: telefon yoki yozma aloqa bog'lash, ularni qo'llab-quvvatlash guruhi yig'ilishlari to'g'risida xabardor qilish;

- qo'llab-quvvatlash guruhi yig'ilishlarida muhokama qilinadigan va ishtirok etadigan mavzular bo'yicha ota-onalarga maslahatlar berish;

- yig'ilish oldidan ota-onalarga tanishish uchun uyga maqsad va vazifalarning taxminiy loyihasini yuborish;
- maktab vakili ota-onalarni kutib olishi, ularni konferensiya zaliga olib borishi va mavzu yuzasidan tanishtirishi kerak;
- Ota-onalarning jamoa yig'ilishida qulay bo'lishini ta'minlash (zerikarli va ota-onalar tushunmaydigan bo'lmasligi kerak).

Maxsus o'qituvchi butun ta'lim jarayonida korreksion rivojlantiruvchi faoliyat olib boradi. Sinf o'qituvchisi tomonidan o'tilgan mavzuni mustahkamlaydi va yangi mavzu yuzasidan alohida ehtiyojli o'quvchiga individual tarzda tushuntirib beradi.

Maxsus o'qituvchi: o'quvchilarning kuchli tomonlarini va ehtiyojli sohalarini aniqlash uchun diagnostik baholashni ta'minlaydi;

- o'qituvchiga baholash jarayonida materiallar va manbalardan foydalanish borasida maslahatlar beradi;
- milliy dastur asosidagi ta'limni samarali o'zlashtirilishida muhim o'rindagi maxsus yondoshuvlarni amalga oshiradi;
- o'quvchilarning bilimni nazoratini to'g'ri amalga oshirilishi va baholanishi uchun tavsiyalar ishlab chiqadi;
- o'quvchilar bilan individual ta'lim dasturlarini, nuqsonlarni tuzatish (korreksiya) va ular bilan bog'liq bola rivojlanishining o'ziga xosliklarini bartaraf etish ishlarini amalga oshiradi;
- maktabda sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirishda ishtirok etadi;
- ota-onalar va keng jamoatchilikka maslahat beradi.

Mahalla: Keng jamoatchilik orqasida har bir oilaning ijtimoiy psixologik holatini, yashash sharoitlari o'rganish;

Mahalladagi o'yin maydonchalarida nogironligi bo'lgan bolalar uchun qulay yo'l, o'yin maydonchalaridan foydalanish uchun maxsus panduslar, yordamchi vositalar bilan ta'minlash;

Nogironligi bo'lgan farzandi mavjud oilaning umumiy muammolari hamda har bir oilaning xususiyatlarini, boshqalaridan farqini aniqlash;

Har bir oilaning tarixini (surunkali kasalliklar, qarindoshlar orasidagi nikoh) o'rganish, oila a'zolarining shaxsiy xususiyatlarini, maqsadlari va umidlarini aniqlashtirish;

Nogironligi bo'lgan bolalarni maktabdagi ta'limini samarali kechishini nazoratini olib borishda ishtirok etadi;

Nogironligi bo'lgan oilalar uchun alohida sharoitlar yaratadi;

Ko'p qavatli uylar hamda maishiy xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan joylarga kirish, uchun panduslar bo'lishini ta'minlash;

Mahallada bolalar orasida tolerantlik, do'stona munosabat muhitini shakllantiruvchi tadbirlar olib borish;

Nogironligi bo'lgan farzandi mavjud oilaga beg'araz yordam bergan va hozirgi kunda hamda yordam berayotganlarni o'rganish, ularni keng jamoatchilik vakillari bilan suhbat jarayonini kuzatish (ular jim, gapirishadi, janjallashishadi, o'zini tajovuzkor tutishadi, ishonmaydilar va hokazo).

Oila bilan ishlashning asosiy maqsadi - Barcha oila a'zolarining (jismoniy, ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy, intellektual) shaxsiy rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, har tomonlama ijtimoiy va psixologik yordam ko'rsatish, shuningdek bolani va oilani himoya qilish, turli omillarni bolaning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'siridan himoya qilish.

Oilani ta'lim jarayoniga jalb qilishning afzalliklari?

- ta'lim jarayoniga qamrab olingan kunga qadar o'quvchi hayotining tarixini yetkazib bera oladi;

- o'quvchi haqidagi muhim tibbiy ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin;

- vaqt o'tishi bilan dasturlashning uzluksizligini ta'minlashga yordam berishi mumkin;

- bolaning uyga va jamiyatga bo'lgan qiziqish va intilishlari, hayotiy ko'nikmalarga oid muhim ma'lumotlarga ega bo'ladi;

- maqsad va samarali strategiyalarni ishlab chiqishda yordam berishi mumkin;

- uy sharoitida bolaning shaxsiy mahoratini mashq qildirish, ularni mustahkamlash, umumlashtirish va saqlash uchun imkoniyatlarni taqdim etishi mumkin.

Ota-onalar hech qachon farzandining o'zlashtirishi tushib ketishidan cho'chimasligi kerak. Odatiy shaklda maxsus maktab-internatlarda ta'lim olayotgan bolalarning ko'rsatkichlaridan inklyuziv ta'lim sharoitda o'qiyotgan bolalarning natijalari yuqoriroq chiqqanligi isbotlandi.

Maktab: Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga qamrab oladi va alohida ta'lim olish ehtiyoji bo'lgan bolalar va ularning ota-onalariga korreksion pedagogik yordam olishida va kasbga yo'naltirishda har tomonlama yordam ko'rsatadi.

Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolani o'ziga o'xshagan nogironligi bo'lgan bolalar emas sog'lom bolalar bilan birgalikda ta'lim olishiga zamin yaratadi.

Inklyuziv ta'lim haqida tushunchaga ega bo'lgan ota-onalarni endilikda inklyuziv ta'limda o'qiydigan farzandi bo'lgan oilalarga tashriflarini tashkil etish;

- ota-onalar uchun uyushma yoki o'z-o'ziga yordam guruhini tashkil etishga yordam berish (telegram guruhlari);

- ta'lim jarayonida sinfdagi biror narsani tuzatishga yoki tuzishga yordam berish uchun otalarni taklif qilish;

- maktab komissiyalari yoki yig'ilishlarida ota-onalarning vakilligini ta'minlash;

- ota-onalarga bolalar uchun sevimli mashg'ulotlarni tashkil etishda yordam berish;

- ota-onalarning o'z huquqlarini himoya qilishlarini ta'minlash, qonunchilik va xizmatlar ko'rsatishga ta'sir ko'rsatadigan jamoat tashkilotlarining ishlariga jalb qilish.

Maktabni ota-onalar bilan bevosita ishlashi:

- ota-onalar bilan navbatdan tashqari uchrashuvlarlar tashkil qilish, ular bilan ma'lumot almashish, bajarilgan va rejalashtirilgan ishlarning borishi va bolaning muvaffaqiyatlari haqida va kelajakdagi rejalarini muhokama qilish;

- ota-onalar yig'ilishidagi har bir berilgan savol va takliflarni yozib olish va muhokama qilish;

ota-onalar uchun maxsus seminar, diolog, suhbat, rolli o'yinlar tashkil etish;

- inklyuziv ta'lim bo'yicha barcha ota -onalar uchun maxsus kurs tashkil etish;

- madaniy tadbirlarni o'tkazish va uni senariysini tayyorlashda ota -onalarni jalb qilish;

- ota-onalardan inklyuziv ta'limga bo'lgan o'z munosabatlarini, ko'rsatiladigan yordamdan keyingi umidlari haqida suhbatlashish.

Ota-onalar bilvosita ishlash:

- ota-onalarga har qanday sharoitda va har qanday holatlarda aniq mutaxassislar bilan bog'lanish haqida ma'lumot berish (psixolog, o'qituvchi, direktor, direktorning tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari);

- ota -onalar uchun maktabda yoki sinf xonasida kitoblar, uslubiy adabiyotlar ko'rgazmasini tashkil etish;

- o'quvchilar bilimini, o'zlashtirish jarayonini, darsgalarga bo'lgan qiziqishlarini, adaptatsiya holatini kuzatib borishi uchun ota-onalarga mos tarqatma materiallar tayyorlash;

- uyda ota -onalarga ham alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchiga mo'ljallangan metodik adabiyaotlar tarqatish;

- ota-onalarga uy vazifasi yoki bo'lajak tadbir, dam olish imkoniyatlari uchun yozma takliflar tayyorlash;

- ota-onalarning ehtiyoji va fikrlarini aniqlash uchun ma'lum bir grafik asosida so'rovnomalarni yuborish;

- maktabga farzandini olib ketish uchun kelgan ota-onalarga kutish joylarida stend yoki e'lonlar taxtasini tashkil etish.

Inklyuziv ta'lim jarayonida o'qituvchi, o'qituvchi-defektolog va oilaning hamkorligidan kutilayotgan natijalar: maktabdan kattalar hayotiga o'tishda (ijtimoiy hayotga kirishda);

- ishga joylashish imkoniyatlarida (nogironlik darajasiga qarab to'g'ri kasb-hunarga yo'naltirish);

- o'quvchining shaxsiy qiziqishlarini eshitish va inobatga olishda;

- maktabni tugatgandan keyingi hayotida turar joy variantlarida;

- alohida ehtiyojli bo'lalarni harakatlanishidagi kunlik ehtiyojlarini qondirish uchun transport vositalarida harakatlanish tartibini singdirish;

- tibbiy yordamdan qanday foydalanish uchun;

- keyingi ta'lim (oliy ta'lim, kollej,) haqida ma'lumot berishda;

- jamoaviy dam olish va bo'sh vaqtini samarali o'tkazish imkoniyatlaridan foydalanishda;

- oilaviy va do'stona munosabatlarni yo'lga qo'yish uchun;

- vasiylik va mustaqil hayot uchun ko'nikmalarni shakllantirishda.

Ko'rishda muammosi bo'lgan o'quvchilar hamda ularning ota-onalariga ko'rsatiladigan faoliyat turlari:

Namuna sifatida ko'rsatish faoliyati. Bu faoliyat jarayonida yutuqlarga erishgan va barcha taniydigan o'rnak bo'ladigan ko'rishda muammosi bo'lgan shaxslarni taklif qiling (ehtimol, sog'lom o'quvchilarga namuna bo'laoladigan ideal shaxs ham bo'lishi mumkin). Ular ushbu hayot yo'lida qanday to'siqlarga duch kelganligi va shu uchragan to'siqlardan qanday qilib yengib o'tish yo'llari haqida suhbatlashiladi.

Qo'llab-quvvatlash faoliyati. Doim esda tutishimiz lozimki, ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar boshqa bolalar bilan bir xil ekanligi, faqat ularda biroz ko'rish qobiliyatida muammo bo'lishi mumkin. Shuning uchun doim ko'rish qobiliyati zaif bolalarni ajratib ko'rsatishda ularni boshqalardan farq qilishdan qochishingiz kerak. Barcha bolalar singari, ko'rish qobiliyati zaif bolalar ham maqto'v va rag'batlantirishni yaxshi ko'rishadi. O'qituvchi ularni qadrlashi va hurmat qilishiga ishonishlari kerak. Ular muayyan ko'nikmalarni o'rganishlari va asbob-uskunalar, materiallardan foydalanishlari uchun qo'shimcha vositalardan foydalanishi mumkin. Shuningdek, to'liq ko'radigan o'quvchilarga qaraganda, ba'zi mashg'ulotlarni qiyinroq deb bilishlari mumkin. Masalan, o'qish, yozish va maktabda harakat qilish jarayonida. Shuning uchun ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni kerakli turdagi va darajadagi yordam bilan ta'minlash muhimdir.

Do'stlar tizimini o'rnatish. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola birinchi marta maktabga borganda o'zini qo'rqib, sarosimaga tushib, yolg'iz his qilishi mumkin. Agar siz o'z sinfingizda "Do'stlar" tizimini o'rnatasangiz, bu ularning o'zini yaxshi his qilishiga yordam beradi. Masalan, ular bolani maktab atrofida ko'rsatishlari, bolaga maktab jadvalini tushuntirishlari, bolaga ishlarida yordam berishlari, tanaffus va tushlik paytida bola bilan birga bo'lishlari mumkin. Shu orqali o'quvchini maktabda o'zini erkin tutadi va o'ziga ishonadi. Bu munosabatni faqat ko'rishda muammosi bo'lgan o'quvchi uchun emas balki sinfdagi har qanday o'quvchi uchun ham do'stlik tizimini yaratishingiz mumkin.

Maktabda bolalarni himoya qilish tizimini yarating. Har bir dars jarayonida kattalashtirilgan yirik shirftdagi tarqatma materiallar hamda ranglardan foydalanishga alohida ahamiyat berilishi lozim. Ya'ni to'q qizil rangdan foydalanmaslik, iloji boricha sariq rangdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar ko'rish qobiliyatining yetishmasligi tufayli turli xil zo'ravonliklarga duchor bo'lishi mumkin. Ayniqsa, ko'rishda muammosi bo'lgan qizlar salbiy gender munosabati tufayli zo'ravonlikka moyil bo'lishi kuzatishlar natijasida aniqlangan. Shuning uchun biz maktablarda bolalarni himoya qilish tizimini ta'minlashingiz kerak. Bu jarayonda maktab psixologi hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha maktab direktori faol ishlar olib boradi.

Maktabga chiqqandan keyin ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar o'quv dasturini o'zlashtirishi uchun o'zlarining vizual bo'lmagan sezgilaridan (eshitish, teri-taktil, hidlash) foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi. Ko'rish qobiliyati past bo'lgan bolalar o'zlarining qoldiq ko'rish qobiliyatidan to'g'ri foydalanish

imkoniyatlarini ham ishga solidi. Masalan, agar ular doska yonida o'tirsa va o'qituvchi doskaga katta aniq harflar bilan yozsa, ularga doskani o'qish osonroq bo'ladi. Ko'zi ojiz bolalar, masalan, brayl alifbosini o'qish va yozishni o'rganish uchun mutaxassis yordamiga muhtoj bo'ladi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar qulay muhitda o'qishlari kerak. Ular xavfsiz harakatlana olashi ya'ni, o'yin maydonchalarida hech qanday ortiqcha yotgan narsalar bo'lmasligi lozim.

Ko'rishda muammosi bo'lgan o'quvchilar mavjud bo'lgan sinf xonalari har doim tinch, ortiqcha shovqunlarsiz, tartibli bo'lishi va shu orqali ushbu o'quvchilar tengdoshlari nima deyayotganini aniq eshita oladigan bo'lishiga ahamiyat berilishini doim yodimizda saqlashi zarur.

O'quvchilarda darslarning dastlabki kunlarida motivatsiya berish maqsadida:

Hamkorlik qilish. Hamma berilgan topshiriqlarni faqat ko'rishda muammosi bo'lgan bolani o'zi qilishiga e'tiborli bo'ling. Boshqa tengdoshlari bilan ishlashiga sharoit yaratib bering. Bu o'quvchining hayotiga ancha ijobiy ta'sir qiladi. Tengdoshlari bilan gaplashsin, chunki ular sizga amaliy yordam bera oladi. Bolaning ota-onasi bilan muntazam suhbatlashing. Ular sizga bola haqida foydali ma'lumotlarni taqdim etishlari mumkin, siz ham ularga foydali ma'lumot bera olasiz. Agar siz ota-onalar birgalikda ishlasangiz, bolaga "birgalikda" yordam ko'rsatishingiz mumkin. Bola bilan gaplashing. Bu bolaning ehtiyojlarini bilishning eng yaxshi usulidir. Masalan, bola tahqirlanishi yoki sinfga borishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Ushbu ma'lumotga ega bo'lganingizdan so'ng, siz bolaning ehtiyojlariga javob berishingiz mumkin.

Samarali muloqot qilish. Ko'rishda muammosi bo'lgan bolalar sinfda tengdoshlari nima deyotganini tushuna olishi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, siz aniq gapirishingiz va gapirayotganda sinfga yuzlanishingiz kerak. Agar siz shunday muloqot qilsangiz, sinfingizdagi barcha bolalar foyda ko'radi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'rish qobiliyati yo'qligi yoki zaifligi hamda ota-onalarining haddan tashqari yopiq muhitda katta qilganligi, dunyoni o'rganishga undamaganligi sababli, o'quvchilarda ba'zi tushunchalarni tushunish qiyin bo'lishi mumkin. Misol uchun, agar siz jirafa haqida gapirsangiz, ko'rish qobiliyati zaif o'quvchi nima haqida gapirayotganingizni tushunmasligi mumkin, chunki u jirafani hech qachon ko'rmagan. Agar shunday bo'lsa, jirafa haqida foydali ma'lumotlarni taqdim etishingiz kerak bo'ladi. Misol uchun, uning uzun bo'yini, kichkina boshi va to'rtta uzun oyog'i bor. Sinf xonangizga jirafa maketini ham olib kelishingiz mumkin. Sinfingizdagi ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchi boshqa o'quvchilar qatori modelni qo'llari bilan his qila oladi. Agar o'quvchining ko'rish qobiliyati past bo'lsa, o'quvchi (boshqa o'quvchilar bilan birga) modelni vizual tekshirishi mumkin. Ko'rish qobiliyati past bo'lgan o'quvchilar ham jirafaning katta va aniq rasmini ko'rishdan boshqalar uchun ham foydali bo'ladi. Ushbu turdagi o'rganish ko'p sensorli o'rganish deb ataladi. Chunki siz o'quvchilaringizni o'rganish uchun turli xil his-tuyg'ulardan foydalanishga undaysiz. Ko'rishda muammosi bo'lgan bolani uchratganingizda u o'quvchi haqida aniq bilib olishingiz va uning yengida kimlar borligini, bugun har kungidan ham yaxshi ekanligini aytishingiz kerak.

Undan tashqari ko‘rishda muammosi bo‘lgan bola bilan gaplashayotganda, uning e‘tiborini jalb qilish uchun avvalo bolaning ismini aytishingiz kerak.

Ko‘p sensorli hissiy o‘rganish va rag‘batlantirish. Ko‘p hissiy o‘rganish ko‘rish qobiliyati zaif bolalar hamda tengdoshlari uchun ham foydali bo‘ladi. Birinchidan, ko‘rish qobiliyatidan tashqari ularda turli xil sezgilarning kuchli rivojlanganligini tan olishingiz kerak. Zaif ko‘ruvchi boalarni borliqni idrok etishga undashimiz lozim. Masalan, siz ularni kitoblardagi rasmlarga qarashga, bosma nashrlarni o‘qishga va atrofdagi dunyoni kuzatishga undashingiz kerak.

Ikkinchidan, ko‘rishda muammosi bo‘lgan bolalarga (ya‘ni, ko‘r va zaif ko‘rish qobiliyatiga ega bo‘lgan bolalar) eshitish, sezish, ta‘m va hidlash orqali o‘rganish imkoniyatini berish muhimdir. Misol uchun, agar siz turli xil mevalar haqida dars berayotgan bo‘lsangiz, sinfga mevalarni olib kelishingiz mumkin. Shunda nafaqat zaif ko‘ruvchi bolalar, balki barcha o‘quvchilaringiz mevalarni ushalab ko‘rishi, ta‘mi va hidini sezishi mumkin.

Doskadan unumli foydalanish. Ko‘rishda muammosi bo‘lgan bolalarda doskaga yozganida ko‘rishga bog‘liq muammolar kuzatiladi. O‘qituvchisi yozgan ma‘lumotlarni o‘qiyolmasligi yoki o‘qishi oson bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun sinf doskasiga nima yozayotganligiz aytib turishingiz kerak.

Sinfga murojaat qilayotganda orqangizni o‘girmaslikka yoki og‘zingizni qo‘lingiz bilan ushlamaslikni unutmang, chunki bu sizning o‘quvchilaringiz nima deyotganingizni eshitishga qiynaladi.

Ko‘rish qobiliyati past bolalar doskada yozganlaringizni o‘qiy olishiga ishonch hosil qilish uchun siz quyidagilarga amal qilishingiz kerak:

- doska toza ekanligiga ishonch hosil qilish;
- doskada soyalar va akslar yo‘qligiga ishonch hosil qilish;
- ma‘lumotni aniq va sodda qilib ko‘rsatish;
- toza va chiroyli yozish;
- ideal holda, qora yuzada oq yoki sariq bo‘rdan foydalanish;



- doskadagi matn satrlari juda uzun emasligiga ishonch hosil qilish zarur.

Zarur bo‘lganda, bolalarni birgalikda, juftlik va kichik guruhlarda ishlashga undash maqsadga muvofiq. Masalan, matematikada ko‘zi to‘laqonli bola savollarni o‘qiy oladi, ko‘zi ojiz bola esa javob yozadi. Shu bilan bir qatorda, tabiiy fan darslarida bir guruh bolalar birgalikda tajriba o‘tkazishlari mumkin, ko‘zi to‘liq bolalar ko‘rishda muammosi bo‘lgan bola bajara olmaydigan muayyan ishlarni bajarishi mumkin (masalan, ma‘lum bir suyuqlikning rangi o‘zgarganini kuzatish). Biroq, siz guruh faoliyatini tashkil qilganingizda, ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalar hech narsa qilmasdan o‘tirishni emas, balki faol ishtirok etishlari juda muhimdir.

Mulohaza yuritish. Bola egallashi kerak bo‘lgan tushunchalarni aniqlang. Bu aniq narsa bo‘lishi kerak. O‘quvchida tizimli ravishda o‘rgating. Siz diqqat bilan rejalashtirishingiz, bolaning ish faoliyatini kuzatib borishingiz, batafsil yozuvlarni

yuritishingiz va bolaning ishlashi, rivojlanishi haqida bolaga va bolaning oilasiga yuzma-yuz va qog'ozda ma'lumot berishingiz mumkin.

O'qish va yozish vazifalarini moslashtirish. Ko'rishida muammosi bo'lgan bolalar ko'pincha cheklangan vaqt ichida katta hajmdagi matnni o'qishga qiyinlashtiradi. Ko'rish qobiliyati past bolalar matnni sog'lom ko'radigan bolalar kabi aniq va to'liq ko'rmaydilar. Shuning uchun o'qituvchilar ko'rish qobiliyati zaif bolalar uchun o'qish vazifalarini moslashtirishlari kerak. Masalan, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolaga matnni boshqa birov o'qib berishi yoki ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolaga kamroq o'qish berilishi yoki tinglashi uchun matn yozib olishi mumkin. Biroq, bu ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qish topshiriqlaridan ozod qilish kerak degani emas! Ularga ham xuddi boshqa bolalar kabi o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini berish kerak.

Ko'rish qobiliyati past bo'lgan o'quvchilar o'z qo'lyozmalarini o'qishda qiynalishi mumkin. Ushbu o'quvchilar uchun yozish vazifalarini moslashtirishingiz kerak. Masalan, boshqa o'quvchi ularning kotibi bo'lishi mumkin. Ko'rish qobiliyati zaif o'quvchini yozib olish uchun magnitafon yoki telefondan foydalanishi mumkin. Sinf xonalarini qulay qilib qo'ying. Ko'rishida muammosi bo'lgan bolalar o'rganish uchun eshitish qobiliyatiga juda ham qattiq suyanadilar. Shuning uchun sinfingiz "shovqinsiz" muhitda ekanligiga ishonch hosil qilishingiz kerak. Sizning sinfingizdagi barcha bolalar bundan foyda ko'radi.

Bundan tashqari, ko'rish qobiliyati past bolalar imkon qadar yaxshi ko'rishlari uchun sinfingizda etarli yorug'lik mavjudligiga ishonch hosil qilishingiz kerak. Shu bilan birga, siz bu bolalar haddan jiyod yorqin nurga duch kelmasligiga ishonch hosil qilishingiz kerak, chunki ko'rish qobiliyati past bo'lgan ko'plab bolalar - ayniqsa albinizmli bolalar "fotofobik", ya'ni yorqin nurga ayniqsa sezgir bo'ladi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar sinfda bemalol va xavfsiz yurishi uchun siz sinfdagi tartibsizliklarni kamaytirishingiz kerak. Ta'kidlab o'tish kerakki, sumkalar qo'yilgan va stullar stol ostiga surilgan. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga kitob va jihozlar uchun yetarli joy kerak bo'ladi. Zaif ko'ruvchi bolalar uchun sinf oldiga yaqin o'tirish ko'pincha foydalidir. Bu ko'rish qobiliyati past bolalar uchun doskani ko'rishni osonlashtiradi. Bundan tashqari, o'qituvchi uchun bu bolalar uchun birma-bir yordam ko'rsatish osonroq bo'ladi. Ko'rishida muammosi bo'lgan bolalarni mustaqil ravishda o'tirmaslik kerak, chunki bu orqali ular o'zini yolg'iz his qiladi. Buning o'rniga, ular to'liq ko'radigan sinfdoshlarining yonida o'tirishlari kerak.

Jamoat joylarida kirish imkoniyatini yarating. Ko'rish qobiliyati zaif bolalar maktab atrofida qulay va xavfsiz sayohat qilishlari lozim. Shuning uchun siz quyidagilarga e'tibor berishingiz kerak:

- Oyoq ostidagi xavf-hatarlarni (notekis yuzalar, chuqurchalar, to'satdan tushishlar) ustini to'ldiring hamda tekislang;
- Yerdagi to'siqlarni olib tashlang (masalan, toshlar, axlatlar);
- Bosh balandligidagi yoki undan pastroqdagi xavflarni (masalan, daraxtlar shoxlar, butalar, ochiq derazalar) olib tashlang;
- Zinalarda tutqichlar borligiga ishonch hosil qiling;

- Bolalar zinapoyalarni oson ko‘rishlari uchun zinapoyalar chetiga qalin chiziqli chizing (sariq va yaxshi rang);

- Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar ko‘rishi uchun eshik romlariga yorqin rangli lentani qo‘ying, shunda bola ularni o‘z stulini osonroq taniydi;

- Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolaning kursisining orqa tomoniga yorqin rangli lentani qo‘ying;

- Shuni ham yodda tutingki, hojatxonalar toza, ko‘rish qobiliyati zaif bolalar foydalanishi uchun qulay bo‘lishi kerak.

Ko‘rishda muammosi bo‘lgan bolalarni maktabga borish va qaytishida qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Buning uchun ularga yo‘lboshchi yordami kerak bo‘ladi. Yo‘lboshchi sifatida maktabdagi tengdoshi eng ma‘qul hisoblanadi. Maktabga kelish va ketish davomida tengdoshi bilan sayohat qilishi, jamoat transportida yurish davomida avtobus narxini to‘lashi mumkinligi, orientatsiya va harakatchanlik mashg‘ulotlarida ast qotadi.

Ko‘rishda muammosi bo‘lgan o‘quvchilarni qo‘l motorikasini rivojlantirishga yordam berish

Nozik, mahoratli, murakkab ishlarni bajarish, poyabzal ipini bog‘lash, qalam yoki ruchka bilan yozish uchun mayda qo‘l motorikasi rivojlantirish zarurdir. Yalpi motorli ko‘nikmalar, to‘pni tepish, eshikni ochish yoki yopish kabi vazifalarni bajarish uchun tananing turli qismlaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Ba’zida ota-onalar qanday mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish uchun qanday yordam berishni bilmaydilar. Bilsa ham ba’zida ota-onalar o‘z imkoniyatlarini yaxshi baholamaydi, chunki ularda ishonch yetarli darajada bo‘lmaydi.

Quyida mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish uchun namunalar berib o‘tamiz:

- Stol yoki boshqa yuzalarni qo‘l bilan silash;
- Ma‘lum bir idishning ichidagi narsalarni topishni his qilish;
- O‘sha idishdagi narsalarni birma-bir olib chiqish;
- Idishning bo‘sh qolganligini his qilish va tekshirish;
- Buyumni teskari holatga qo‘yish;
- O‘yin faoliyatida obyektlarni ikkala qo‘l bilan bir joyga to‘plash, masalan, minora yoki devor qurish;
- Loy yoki xamirni urib, siqib, so‘ng uni yoyib, bo‘laklarga bo‘lib kesish;
- Bolg‘a bilan urish;
- Bo‘sh turgan idishlarni suyuqlik bilan to‘ldirish va ularni bo‘shatish;
- Shimgichni (gupka) suv bilan to‘ldirishva keyin uni siqish;
- To‘pni uloqtirish va ushlash;
- arqonni bog‘lash;
- Kundalik narsalarni ikki qo‘l bilan his qilish va ularni nomlash;
- Ish stoli ustida sochilib qolgan narsalarni toppish;
- Narsalarni aralashtirish va bir xil qilib alohida-alohida ajratish;
- Ip yoki ipakni sharga yoki tutqich atrofiga o‘rash;
- Idishlarni ushlab, qopqoqlarini ochish;
- Tugunlarni o‘tkazish va yechish;
- Predmetlarni guruhlariga saralash;

- Qog‘oz va kartani yirtish va g‘ijimlash.

Dastlab mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish uchun bolaga bitta quti beriladi va unga katta narsalarni joylashtirishdan boshlanadi. Bola bu ko‘nikmani o‘zlashtirgandan so‘ng, undan kichikroq narsalarni, masalan, stakan va bloklarni to‘plashni so‘rashingiz mumkin. Mashq bolaga:

- “yuqori”, “pastki”, -“pozitsiya so‘zlari”;
- ”katta”, “kichik” kabi "o‘lcham so‘zlari”;
- "birinchi" “o‘ninchi”- “tartib so‘zlari” kabilarni o‘rgatish imkoniyatini beradi.

Yirik predmetlar bilan mayda qo‘l motorikasi rivojlantirib dastlabki ko‘nikmalar hosil qilingandan keyin o‘quvchilardan kichik narsalarni saralashni so‘rashni boshlashingiz mumkin. Siz uyda, maktabda yoki bozorda mavjud bo‘lgan quruq no‘xat, loviya, tosh va shunga o‘xshash kundalik narsalardan boshlashingiz mumkin. Har xil turdagi narsalarni aralashtirib, o‘quvchilardan ularni alohida qutilarga, stakanlarga yoki bankalarga ajratishni so‘rang. Shuningdek, ular narsalarni o‘lchami, shakli yoki tuzilishiga ko‘ra guruhlarga ajratishlari mumkin (masalan tag‘al yoki silliq). Shuningdek, bolalarga “bir xil”, “har xil”, “katta”, “kichikroq” kabi so‘zlarni tushunishni rivojlantirish uchun ushbu mashg‘ulotlardan foydalanishingiz kerak.

Hissiy sumkalar. Moslashishga yordam berish uchun siz “hissiy sumkalar” yasashingiz mumkin. Matodan tayyorlangan kichik sumkalarni kundalik narsalar bilan to‘ldiring. Masalan, ikki qop loviya, ikki qop no‘xat va ikki qop guruch. Xaltalarning yuqori qismini tikib qo‘ying. Xaltalarni aralashtirib, bolaga bering. Boladan sumkalarni his qilishni va bir xil narsalarni o‘z ichiga olgan sumkalarga mos kelishini so‘rang. Siz dastlab oltita sumkadan boshlashingiz undan keyin asta-sekin sumkalar sonini oshirishingiz mumkin.

Shakllarni saralash. Bolada qo‘llari yordamida shakllarni tanib olish va farqlash qobiliyatini rivojlantirish kerak. Kartondan kesilgan doiralar, kvadratlar va uchburchaklar kabi oddiy shakllardan boshlashingiz mumkin. Bola katta shakllarni taniy olgandan so‘ng, siz bolaga kichikroq shakllarni berishingiz mumkin. Bolani barmoqlari yordamida shaklni aniqlashga undash kerak.

